

## **Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyatlari hududiy bo‘limlarida sayyor qabul**

O’zbekiston Respublikasining 2014-yil 3-dekabrdagi 378-sonli «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonuni ijrosini ta’minalash doirasida ishlab chiqilgan O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig‘ining hududiy bo‘limlarda jismoniy va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish jadvaliga asosan, joriy yilning 11-mart kuni O’zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig‘i V.Ismoilovning Xorazm viloyati hamda Qoraqalpog‘iston hududiy bo‘limlarida sayyor qabuli bo‘lib o‘tdi.

Har ikki yig‘ilishda Agentlik boshlig‘i V.Ismoilov avtotransport sohasini yanada rivojlantirishdagi muammo va takliflarni ochiq oydin gaplashib olish uchun yig‘ilganliklarini aytib, tashuvchilarda qanday muammo va takliflar bo‘lsa savollar bilan murojaat qilishlarni aytib o‘tdi.

Yig‘ilishda avtokorxonalarining vakillari o‘z faoliyatlarida duch kelayotgan muammolar yuzasidan shikoyat va takliflar bilan murojaat qildilar. Agentlik boshlig‘i barcha savollarga batafsил javob berdi.

Shuningdek, Xorazm viloyatida noqonuniy yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanyotgan transport vositalariga ko‘rilib borilayotgan choralar to‘g‘risida, shaharlararo tashuvvlarni amalga oshirishda litsenziyalarni olish, yo‘nalishsiz taksilarning qaror talablari bo‘yicha terminal, taksometr, kassa nazorat mashinasi bilan ta’minalashda uchrayotgan muammo va takliflar eshitildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi «Avto Vektor» MChJ rahbari M.Tulepov g‘alla va paxta yig‘im-terimi mavsumida «O’zpaxtasanoat», «O’zdonmaxsuloti» uyumasi va «Qishloqxo‘jalikkimyo» tashkilotlariga ko‘rsatilgan avtotransport xizmatlaridan yuzaga kelgan debtorlik qarzlarini undirish bo‘yicha, «Tumar Eksport trans» MChJ rahbari T.Mamutov shahar ichida avtobus va mikroavtobuslarning tarifini ko‘tarish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatilishini so‘radilar.

“Ахымжан транс” MChJ rahbari I. Saburov yo‘nalishsiz taksilarga taksometr, terminal o‘rnatish masalasi qiyin bo‘lishini inobatga olgan holda, avtomobilarni yo‘nalishli taxi sifatida ishlatishtga ruxsat berishlarini so‘radi.

Xorazm viloyatidagi “Yangiariq trans” korxonasi rahbari J.Qutliev yo‘nalishsiz taksilarni yo‘nalishlarga tender asosida joylashtirish, “Hudaybergan Xorazm trans” ma’suliyati cheklangan jamiyati rahbar o‘rinbosari Bekchonov

Odilbek korxonaga lizing asosida o‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan Isuzu rusumli avtobus olmoqchi ekanligini va lizingga olingan avtobuslarga gaz ballon o‘rnatish hususida, hamda “Sog‘diana star servis” ma’suliyati cheklangan jamiyati rahbari Ruslan Matchonovning tashuvchining fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish bo‘yicha, tashuvchi rahbar va harakat xavfsizligiga ma’sul shaxslarni malaka oshirilishi bo‘yicha, yo‘nalishsiz taksilarga o‘rnatiladigan terminallar va taksometrlarni sotib olishda banklardan kredit olish masalasi bo‘yicha yordam berishlarini so‘radi.

Agentlik boshlig‘i barcha savollarga to‘la-to‘kis javob berib, Agentlik o‘z vakolatlari doirasidagi barcha masalalarda tashuvchilarga yordam berishga tayyorligini bildirib, hududiy bo‘lim rahbarlariga bu borada tegishli vazifalarni yukladi. Respublika miqyosidagi boshqa tashkilot va muassasalar yordamida bartaraf etiladigan muammolarga doir barcha savollarni V. Ismoilov alohida belgilab olib, o‘rnatilgan tartibda ko‘maklashishga va’da berdi. Jumladan, Agentlik rahbariyati tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar vakillarini belgilangan kunlarda va soatlarda shaxsan va tegishli mas’ul xodimlar bilan birgalikda qabul qilinishini amalga oshirish va murojaat qiluvchilar uchun barcha qulay shart-sharoitlar yaralganligini aytib o‘tdi.

Xorazm viloyati “Jasurbek yo‘lovchi tashish” ma’suliyati cheklangan jamiyati rahbari A. Atajonov avtotransport faoliyatini amalga oshirayotgan XYuS ishini yengillashtirish borasida, xususan tashkilotlarda yagona soliq bo‘yicha 2015-yildagiga nisbatan yana 1 foizga pasaytirilib, 5 foiz qilib belgilab, to‘lovlarni amalga oshirishda transport vositalari sonini 25 tadan 50 tagacha ko‘tarilishidagi xizmatlari uchun o‘zi va barcha yig‘ilish ishtirokchilari nomidan Agentlik boshlig‘iga minnatdorchilik bildirdi.

Yig‘ilish yakunida Xorazm viloyati “Yangiariq trans” MChJ rahbari J. Qutliev tadbirkorlar bilan sayyor yig‘ilish o‘tkazib avtotransport soxasida keng tushuntirishlar bergenligi va soxa rivojiga katta hissa qo‘shilayotganligidan mamnun bo‘lib, yig‘ilish qatnashchilari nomidan Agentlik boshlig‘i V. Ismoilovga hamda avtotransport xavfsizligini ta’minlash bo‘limi boshlig‘i A. Ulmasovga o‘z minnatdorchiligidini bildirdi.

Har ikki uchrashuv yakunida tadbirkorlarga muammoli masalalar, takliflar va shikoyatlar bilan Agentlik boshlig‘iga elektron pochta orqali bevosita murojaat qilish mumkinligi eslatildi.

Albatta bunday ochiq oydin tarzda tashkil etilayotgan uchrashuvlar mamlakatimizda tadbirkorlarga yaratilayotgan imtiyozlar, qulay ishbilarmonlik muhitini shakillantirishga xizmat qiladi.